


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**“THE SOUTHERN RENAISSANCE”: THE ORIGIN OF THE CONCEPT, CHRONOLOGY, AND MAIN REPRESENTATIVES*****Islomjon Isroilovich Umrzakov****Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**Iskhokhon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages**E-mail: islomumrzakov0101@gmail.com**Namangan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Southern Renaissance, American literature, William Faulkner, Allen Tate, modernism, “Lost Cause,” regional literature, magical realism, comparative literary studies, comparative-historical method, comparative-typological method.

Received: 21.05.26**Accepted:** 22.05.26**Published:** 23.05.26

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the phenomenon of the “Southern Renaissance,” an unprecedented rise in the literature of the southern states of the United States during the first half of the twentieth century. The study employs comparative-historical, comparative-typological, descriptive-analytical, and cultural-historical methods. Through the comparative-historical method, the stages of the formation of the “Southern Renaissance” and the socio-political factors influencing its development are examined. The comparative-typological method is used to identify the similarities and differences between the “Southern Renaissance” and other literary movements, particularly European modernism and the “Harlem Renaissance.” Based on the descriptive-analytical method, the works and literary heritage of the leading representatives are analyzed. The cultural-historical method reveals the influence of the “Lost Cause” ideology, the trauma of the Civil War, and modernization processes on the literary movement. The article also pays special attention to the impact of the “Southern Renaissance” on world literature, especially on Latin American magical realism.

“JANUB RENESSANSI”: KONSEPSIYANING KELIB CHIQISHI, XRONOLOGIYASI VA ASOSIY ISHTIROKCHILARI***Islomjon Isroilovich Umrzaqov****Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

E-mail: islomumrzakov0101@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAIQDA

Kalit soʻzlar: Janub Renessansi, Amerika adabiyoti, Uilyam Folkner, Allen Teyt, modernizm, “Yoʻqotilgan sabab”, mintaqaviy adabiyot, sehrlilizm, qiyosiy adabiyotshunoslik, qiyosiy-tarixiy metod, qiyosiy-tipologik metod.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning birinchi yarmida Amerika Qoʻshma Shtatlari janubiy oʻlkalari adabiyotida yuz bergan misli koʻrilmagan yuksalish – “Janub Renessansi” fenomeni kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, tavsifiy-analitik hamda madaniy-tarixiy metodlardan foydalanilgan. Qiyosiy-tarixiy metod orqali “Janub Renessansi”ning shakllanish bosqichlari va unga taʼsir koʻrsatgan ijtimoiy-siyosiy omillar oʻrganilgan. Qiyosiy-tipologik metod yordamida “Janub Renessansi”ning boshqa adabiy harakatlar, xususan Yevropa modernizmi va “Garlem renessansi” bilan mushtarak va farqli jihatlari aniqlangan. Tavsifiy-analitik metod asosida yetakchi namoyandalar ijodi va ularning badiiy merosi tahlil qilingan. Madaniy-tarixiy metod esa “Yoʻqotilgan sabab” mafkurasi, Fuqarolar urushi travmasi va modernizatsiya jarayonlarining adabiy jarayonga taʼsirini ochib berishga xizmat qilgan. Maqolada “Janub Renessansi”ning jahon adabiyotiga, xususan Lotin Amerikasi sehrlilizmiga koʻrsatgan taʼsiri masalasiga ham alohida eʼtibor qaratilgan.

“ЮЖНЫЙ РЕНЕССАНС”: ПРОИСХОЖДЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ, ХРОНОЛОГИЯ И ОСНОВНЫЕ ПРЕДСТАВИТЕЛИ

Исломжон Исроилович Умрзаков

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Наманганский государственный институт иностранных языков

имени Исхокхона Ибрата

E-mail: islomumrzakov0101@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Южный Ренессанс, американская литература, William Faulkner, Allen Tate, модернизм, «Утраченное дело», региональная литература, магический реализм, сравнительное литературоведение, сравнительно-исторический метод, сравнительно-типологический метод.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируется феномен «Южного Ренессанса» — беспрецедентного подъема литературы южных штатов Соединённых Штатов Америки в первой половине XX века. В исследовании использованы сравнительно-исторический, сравнительно-

типологический, описательно-аналитический и культурно-исторический методы. С помощью сравнительно-исторического метода изучены этапы формирования «Южного Ренессанса» и социально-политические факторы, повлиявшие на его развитие. Посредством сравнительно-типологического метода выявлены общие и отличительные черты «Южного Ренессанса» с другими литературными движениями, в частности с европейским модернизмом и «Гарлемским ренессансом». На основе описательно-аналитического метода проанализировано творчество ведущих представителей и их художественное наследие. Культурно-исторический метод позволил раскрыть влияние идеологии «Утраченного дела», травмы Гражданской войны и процессов модернизации на литературный процесс. В статье также уделено особое внимание влиянию «Южного Ренессанса» на мировую литературу, в частности на магический реализм Латинской Америки.

Kirish. “Janub Renessansi” iborasi XX asrning birinchi yarmida Amerika Qo’shma Shtatlarining janubiy shtatlarida adabiy jarayonlarning misli ko’rilmagan gullab-yashnashini ifodalash uchun Amerika adabiy tanqidchiligida keng qo’llanila boshlagan. Bu hodisa Amerika madaniyati tarixidagi eng hayratlanarli voqealardan biri bo’ldi. Uzoq vaqt mobaynida G’arb sivilizatsiyasining asosiy yo’nalishlaridan uzilgan, oddiy va chekka hudud sifatida qaralgan mintqa to’satdan jahon miqyosidagi yozuvchilar, yulduzlar turkumini yetishtirib chiqardi – Nobel mukofoti sovrindori Uilyam Folkner, AQShning birinchi rasmiy shoiri-laureati bo’lgan Robert Penn Uorren va boshqa ko’plab ijodkorlar, ularning asarlari jahon adabiyoti fundamental asarlarining tan olingan ro’yxatiga kirgan.

“Janub Renessansi” deb nomlangan davrning o’ziga xos ziddiyati uning nomidayoq ko’rinadi. Renessans, ya’ni “qayta tiklanish” deganda, yo’qotilgan buyuklikka qaytish tushuniladi. Ammo 1920-yildan 1950-yilgacha bo’lgan davrda Amerika janubida aynan nima qayta tiklanayotgan edi? Bu haqiqiy madaniy an’anami yoki shunchaki uydirma? Agar tiklanish jarayoni mavjud bo’lgan bo’lsa, u nimadan iborat edi? Janubliklar o’zlari yo’qotilgan deb hisoblagan plantatsiya tuzumi va ritsarchilik qadriyatlarini qayta tiklanmoqchimi yoki eski ko’rinish ostida butunlay yangi bir hodisa shakllanayotganmidi? Bu savollar adabiyotshunoslikda hozirgacha aniq javob topmagan va ko’plab ilmiy munozaralarga sabab bo’lib kelmoqda.

Biz mazkur tadqiqotimizda “Janub Renessansi” fenomenini uch asosiy yo‘nalishda, avvalo, terminning shakllanishi va uning talqiniga oid nazariy munozaralar, jarayonning xronologiyasi, uning paydo bo‘lishi, gullab-yashnashi va asta-sekin susayishi, va nihoyat, yetakchi namoyandalar va ularning ilmiy-adabiy merosga qo‘shgan hissasini izchil tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Bunday yondashuv nafaqat faktologik manzarani tiklashga, balki ushbu hodisaning ichki qonuniyatlari va mazmuniy mohiyatini chuqurroq anglashga ham imkon beradi. Bu hodisa adabiy tanqidchi Luis Rubin ta’biri bilan aytganda, “Amerika tarixida eng boy mintaqaviy adabiyot”ni yaratdi [1, p.286].

Adabiyotlar tahlili. “Janub Renessansi” atamasining kelib chiqishi masalasi hanuz bahsli bo‘lib kelmoqda. Ko‘pincha boshlang‘ich nuqta sifatida Allen Teytning “Reksion ocherklar” (Reactionary Essays, 1936) asari va uning 1930-yillardagi avvalgi tanqidiy asarlari e’tirof etiladi. Unda shoir va tanqidchi uning ko‘z o‘ngida sodir bo‘layotgan madaniy yuksalishni Janubiy tarixda misli ko‘rilmagan hodisa sifatida ta’riflagan. Teyt, bu harakatning markaziy ishtirokchilaridan biri sifatida, uni an’anaviy Janub ruhi va zamonaviy Amerikaning rivojlanayotgan sanoat sivilizatsiyasi o‘rtasidagi fojiali to‘qnashuv natijasi sifatida ko‘rgan [2, p.92].

“Renessans” atamasi avvallari AQSHning janubiy o‘lkalari adabiyotini tasvirlash uchun ishlatilgan. Tanqidchi va noshir H.L. Menken o‘zining mashhur “Dozzi sahrosi” (Sahara of the Bozart, 1917, 1920-yilda kengaytirilgan) maqolasida Amerika janubining madaniy qashshoqligini keskin tanqid qilib, uni “badiiy xaroba” deb atagan [3, p.138]. Paradoksal ravishda, bu zarba janubliklarning o‘zlari “madaniy uyg‘onish” deb atagan hodisaga turtki bo‘ldi, ya’ni janubdagi o‘qimishli yoshlar Menkenning ayblovini javob talab qiladigan chaqiriq sifatida qabul qildilar.

Menken shunday yozgan edi: “Agar siz bugun Amerika janubini kezib chiqib, Germaniya va Fransiyaning umumiy maydoniga teng bo‘lgan maydonni egallab, munosib bino yaratishga qodir bo‘lgan yagona tirik me’morni, jamoat bog‘ini bezashga arziydigan haykal yaratishga qodir bo‘lgan yagona tirik haykaltaroshni, yagona tirik rassomni qidirsangiz, butunlay hafsalangiz pir bo‘ladi” [3, p.138].

Menken tomonidan yozilgan maqolaga janubliklarning munosabati juda samarali bo‘ldi. Tanqidchi Fred Xobson “Qo‘zg‘olondagi janublik” (1974) asarida ta’kidlaganidek, aynan tashqi “tajovuzkor chaqiriq” o‘z-o‘zini anglash va madaniy yuksalishning muhim katalizatorlardan biriga aylandi [4, p.124].

“Renessans” so‘zining o‘zi ham bejiz tanlanmagan. U bir nechta ma’no qatlamlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularning har biri harakatni tushunish uchun o‘ziga xos tarzda muhimdir.

Birinchidan, bu atama falokatdan keyin qayta tug‘ilish va tiklanish g‘oyasini anglatadi. Fuqarolar urushidagi (1861–1865) mag‘lubiyat va undan keyingi Qayta qurish davri (1865–1877) davri janub jamiyati tomonidan milliy fojiaga tenglashtirilgan. Oradan o‘nlab yillar o‘tgach ham,

yozuvchilar o'tmishga oddiy sog'inch bilan emas, balki tanqidiy tahlil obyekti sifatida murojaat qila boshladilar. Lyuis Simpson ta'kidlaganidek, "Janub yozuvchisi o'z madaniyatining asiri bo'lgani kabi tarixning ham asiridir" [5, p.109].

Ikkinchidan, bu atama universallik da'vosini ham o'z ichiga oladi. Janub yozuvchilari faqat mintaqaviy adabiyot yaratishni emas, balki butun insoniyatga xos muammolarni mahalliy va tanish materiallar orqali yoritishni maqsad qilganlar. Bu jihat jahon adabiyotida modernizm an'alariga mos keladi, jumladan, Jeyms Joys Dublinni, Marsel Prust esa fransuz jamiyatini tasvirlab, butun insoniyat haqida so'z yuritgan. Uilyam Folkner esa umumbashariy muammolarni Missisipidagi xayoliy Yoknapatafa okrugi orqali tasvirlagan.

Uchinchidan, "Renessans davri" atamasi avvalgi an'analar bilan bog'liqlikni anglatardi. Biroq, bu yerda jiddiy savol yuzaga keladi; 1920-yillardan oldin Amerika janubida biron bir muhim adabiy an'ana bo'lganmi? Adabiy tanqidchilar bu fikrga qo'shilmaydilar, bir tomondan, urushdan oldin Janub adabiyoti mavjud edi. Garchi mintaqaviy atributi bahsli bo'lsa ham Edgar Allen Po o'sha davr adabiy jarayonlariga katta hissa qo'shdi, Uilyam Gilmor Simms va "plantatsiya nasri" mualliflarining ham o'z ovozlari bor edi. Boshqa tomondan, bu an'ana badiiy yutuqlarda juda kamtarona edi va ko'pchilik olimlar "Janub Renessansi davri"ni aslida birinchi yuksalish davri deb hisoblaydilar.

"Janub Renessansi" davri atamasi avval boshidanoq bahsli bo'lganligi sababli tanqidchilar bir nechta fundamental muammolarga ishora qilishgan. Bu muammolarni quyidagicha izohlash mumkin:

– irqiy masala. "Janub Renessansi" o'zining dastlabki, umumiy qabul qilingan talqinida asosan oq tanli yozuvchilar harakati sifatida qaralgan. Shu bilan birga, aynan bu davrda janubda Richard Rayt hamda hayotining katta qismi Floridada o'tgan bo'lsa-da Zora Nil Hyorston kabi afroamerikalik yozuvchilar ham yashab, ijod qilganlar, shuningdek, Langston Hyuz ham janubga borib, uni o'z asarlarida madh etgan. Bundan tashqari, "Garlem renessansi" (Harlem Renaissance) – 1920-1930-yillarda afroamerikaliklarga xos madaniyatning yuksalish davri "Janub Renessansi" bilan bir vaqtda rivojlangan bo'lib, bu ikki hodisa o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan, biroq ayrim jihatlarda bir-biriga qarama-qarshi ham turgan. Zamonaviy adabiyotshunoslik "Janub Renessansi" davrining to'liq manzarasi Janubdagi afroamerikalik yozuvchilarni ham o'z ichiga olishi kerakligini ta'kidlaydi. Avvalo Richard Raytni, uning 1940-yilda nashr etilgan "Tub yerlik o'g'ilon" (Native Son) romani ushbu davr hayotini aks ettirgan eng yuksak cho'qqilaridan biri hisoblanadi.

– gender masalasi. "Janub Renessansi"ning dastlabki adabiy doirasi asosan erkak yozuvchilardan iborat bo'lgan, holbuki harakatning eng yirik vakillari orasida Ketrin Enn Porter, Karson Makkalers, Flanneri O'Konnor kabi ayol ijodkorlar ham bor edi. XX asrning ikkinchi

yarmidagi feministik tanqid ushbu an'anaviy adiblar guruhini sezilarli darajada qayta ko'rib chiqishga undadi.

– xronologik masala. “Renessans” qachon boshlangan va qachon yakunlanganligi haqida turli tadqiqotchilar turli sanalarni keltiradilar. Lyuis Rubin va Robert Jekobs “Janub Renessansi yozuvchilari” (1953) nomli fundamental antologiyada uning boshlanishini 1920-yillarga bog'laydilar [1, p.286]. Boshqa tadqiqotchilar, masalan, Richard Grey, boshlanish chegarasini 1890-yillargacha suradilar [6, p.362]. Yuqori chegara ham turlicha talqin qilinadi: ayrimlar bu harakat 1960-yillarga kelib so'ngan deb hisoblasalar, boshqalar u XX asrning ikkinchi yarmidagi “postjanub” adabiyotga asta-sekin o'tib ketganini ta'kidlaydilar.

– bu juda oz sonli salaflari bo'lgan hodisaga nisbatan qo'llaniladigan “uyg'onish davri” tushunchasining o'zi, chunki bu hodisa uchun avvalgi an'analar juda kam bo'lgan. 1960-yillarda tanqidchi Myuril Kriger “Renessans aslida nima edi?” degan ritorik savolni qo'ydi va bu atama hodisaning mohiyatini ochib berish o'rniga mavhum bo'lishini ta'kidladi [7, p.203]. Shunga qaramay, “Janub renessansi davri” atamasi adabiy fanda mustahkam o'rin egalladi va Amerika Qo'shma Shtatlari adabiyoti tarixidagi eng muhim davrlardan biri sifatida e'tirof qilinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tarixiy metod “Janub Renessansi”ning shakllanish bosqichlari, Fuqarolar urushi travmasi, Qayta qurish davri va “Yo'qotilgan sabab” mafkurasining adabiy jarayonga ta'sirini o'rganishda qo'llanildi. Bu metod orqali “Janub Renessansi” hodisasining tarixiy ildizlari va uning rivojlanishiga turtki bo'lgan ijtimoiy-siyosiy omillar tahlil qilindi.

Qiyosiy-tipologik metod “Janub Renessansi”ning Yevropa modernizmi, “Garlem renessansi” kabi boshqa adabiy harakatlar bilan mushtarak va farqli jihatlarini aniqlashda foydalanildi. Ushbu metod yordamida “Janub Renessansi”ning jahon adabiy jarayonidagi o'rni va o'ziga xos xususiyatlari belgilandi.

Tavsifiy-analitik metod yetakchi namoyandalar – Uilyam Folkner, Allen Teyt, Robert Penn Uorren, Ketrin Enn Porter, Karson Makkalers, Flanneri O'Konnor va boshqalar ijodi hamda ularning badiiy merosini tahlil qilishda qo'llanildi. Bu metod asosida har bir ijodkorning “Janub Renessansi”ga qo'shgan hissasi va ularning asarlaridagi umumiy xususiyatlar o'rganildi.

Madaniy-tarixiy metod “Yo'qotilgan sabab” mafkurasini, modernizatsiya jarayonlari, “Agrarlar” harakati faoliyati va institutsional omillarning adabiy jarayonga ta'sirini ochib berishda foydalanildi. Bu metod “Janub Renessansi”ni kengroq madaniy kontekstda ko'rib chiqish imkonini berdi.

Natijalar va ularning tahlili. “Janub Renessansi”ni uning tarixiy kontekstisiz tushunishning iloji yo'q. Fuqarolar urushidagi mag'lubiyat Janub jamiyatining o'zini anglashida hal qiluvchi rol o'ynadi. AQShning boshqa hududlaridan farqli ravishda, Janub urushdagi

mag'lubiyat, okkupatsiya va odatiy ijtimoiy tuzumning yo'qolishi tajribasini boshdan kechirgan, bu esa Amerika madaniy an'anasida noyob holat edi.

1870-yillardan boshlab janublik tarixchilar, memuaristlar va publitsistlar tomonidan faol ravishda ishlab chiqilgan "Yo'qotilgan sabab" mafkurasi harbiy mag'lubiyatni romantik fojiaga – ritsar jamiyatning ustun kuchlarga qarshi umidsiz kurashi haqidagi epik asarga aylantirdi. Bu mafkura ko'p jihatdan mifologik bo'lgan, biroq u muhim psixologik vazifani bajargan, ya'ni, mag'lubiyat va davom etayotgan iqtisodiy qoloqlik sharoitida jamoaviy qadr-qimmatini saqlab qolishga yordam bergan.

"Janub Renessansi" yozuvchilari tarixning og'ir merosini o'z zimmalariga olgan edilar, lekin ularning "yo'qotilgan sabab" haqidagi afsonaga bo'lgan munosabati bu afsonani shunchaki qaytarish yoki butunlay rad etishdan ko'ra murakkabroq edi. Folkner, Teyt va Uorren janubiy afsonaning zaharli ekanini teran his qilishgan, shu bilan birga undan ajralishga na qodir, na tayyor edilar. Ular go'yo shunday deyishardi: "Biz bu yolg'on ekanligini bilamiz, ammo bu bizning yolg'onimiz va u haqiqiy qadriyatlar hamda chinakam yo'qotishlarga ishora qiladi". Amerikalik yozuvchi va jamoat arbobi Kurt Vonnegut ham aynan ushbu davr Janubiy adabiyoti haqida o'z munosabatini quyidagicha bayon qiladi: "Janub Qo'shma Shtatlarning dunyoga g'oliblar nigohi bilan qaraydigan qismi emas. Bu mamlakatning mag'lubiyat nima ekanligini biladigan qismidir."

Uilyam Folkner o'zining "Absalom, Absalom!" (1936) romanida bu murakkab hissiy holatni juda aniq tasvirlaydi, roman qahramoni, Garvard talabasi Kventin Kompson nima uchun Janubni yomon ko'rishi haqidagi savolga javob berar ekan, aslida: "Men uni yomon ko'rmayman", deya ta'kidlaydi [8, p.8]. Shu inkor orqali janubiy ongning ichki ziddiyati ochiladi, ya'ni alam va iztirob bilan qorishgan muhabbat hamda uyat bilan chambarchas bog'langan mehr hissi namoyon bo'ladi.

Fuqarolar urushining tarixiy xotirasidan tashqari, XX asrning dastlabki o'n yilliklarida Janub boshidan kechirgan jadallashtirilgan modernizatsiya jarayoni "Janub Renessansi" davrining paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi. Sanoatlashtirish, urbanizatsiya va ommaviy madaniyatning keng yoyilishi janubliklar ideal sifatida tasavvur qilgan an'anaviy agrar hayot tarziga jiddiy xavf tug'dirdi, shu bilan birga ular bu tizim ichidagi real ijtimoiy muammolarni, ayniqsa irqiy segregatsiyani har doim ham to'liq anglab yetmagan edi.

1930-yilda "Agrarlar" deb nom olgan bir guruh mutafakkirlar va shoirlar "Men o'z qarashlarimda qat'iyman" (I'll Take My Stand) manifesti atrofida birlashdilar va ular Janubning an'anaviyligini Shimolning sanoat kapitalizmi bilan ochiqchasiga qarshi qo'yanlar. Allen Teyt, Robert Penn Uorren, Jon Krou Ransom va boshqa mualliflar qullik tizimini qayta tiklashni targ'ib etmagan, biroq ular janubiy madaniyatda sanoatlashgan sivilizatsiya yo'qotgan muhim qadriyatlar saqlanib qolganini ilgari surgan. Ularning fikricha, bu qadriyatlarga yer bilan uzviy bog'liqlik,

diniy e'tiqod, tarixga hurmat va hayotning sokin, shoshilmas ritmi kiradi, shu bilan birga tanqidchilar ularni ko'pincha industrialashuvdan oldingi Janubni oqlashga moyillikda ayblagan.

Aksariyat tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi bu ziddiyat "Janub Renessansi" uchun asosiy energiya manbai bo'lgan. Allen Teyt buni butun harakatni tushunishning kaliti sifatida ko'pincha tilga olinadigan mashhur kuzatuvida quyidagicha ifodalagan:

"Janublik yozuvchi o'zini tarixan misli ko'rilmagan holatda topdi, u o'zining ona sivilizatsiyasiga ham ichki, ham tashqi tomondan qaradi. U hali ham uni tirik deb eslardi, lekin u allaqachon uning yo'q bo'lib ketayotganini tushungan edi. Ana shu ikkiyoqlama nigoh buyuk adabiyotni yuzaga keltirdi" [2, p.92].

Shuningdek, institutsional omillarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bir qator janub universitetlari jumladan, Nashvildagi Vanderbilt universiteti, Sharlotsvildagi Virjiniya universiteti va Luiziana universitetlari adabiy guruhlar va jurnallar paydo bo'lgan intellektual markazlarga aylandi. Aynan Vanderbilt "Qochqinlar" (The Fugitives, 1915–1928) va ularning shu nomdagi jurnalini dunyoga keltirdi, bu esa yangi paydo bo'lgan harakatning birinchi forumiga aylandi.

"The Fugitives" jurnali tiraji kichik bo'lsa-da, mualliflari jihatidan nihoyatda yuqori saviyaga ega edi. Unda keyinchalik ham agrarlar, ham yangi tanqidchilar harakatining asosini tashkil etgan Jon Kreyn Rensom, Allen Teyt, Robert Penn Uorren va Donald Devidsonlar kabi ijodkorlar ishlari chop etilgan. Aynan shu yerda "Janub Renessansi" davrini belgilab bergan adabiyot va madaniyat haqidagi intellektual munozara uslubi shakllandi.

"Janub renessansi" deb nomlanuvchi adabiy hodisa butun dunyo adabiy jarayonidan ajralgan, yakka holda sodir bo'lgan emas. Bu harakatning vakillari, ya'ni janub yozuvchilari o'z davrining Yevropa va jahon modernizmining yirik namoyandalari bilan yaxshi tanish bo'lgan. Ular irlandiyalik yozuvchi Jeyms Joys, fransuz yozuvchisi Marsel Prust, amerikalik ingliz shoiri Tomas Sterns Eliot va polshalik ingliz yozuvchisi Jozef Konrad kabi ijodkorlarni chuqur o'rgangan va ular bilan ijodiy suhbatga kirishganlar. Lekin bu suhbatlar oddiygina ularning usullarini o'rganish va ko'chirish emas edi. Janublik yozuvchilar modernizm texnikasini o'zlarining tarixiy va madaniy tajribalari, ya'ni Janubning o'ziga xos sharoiti va muammolari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqdilar va yangicha ma'no berdilar. Shuning uchun ularning modernizmi yevropanikidan farq qiladigan, o'ziga xos va betakror xususiyatlarga ega bo'ldi.

Janub uyg'onishi butun dunyo adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Lotin Amerikasidagi sehrli realizm yo'nalishi yozuvchilari, xususan Garsiya Markes, Asturias va Karptyentyer Folknerni o'zlarining asosiy ilhom manbai deb bilishgan. Garsiya Markes intervyularida "Yuz yillik yolg'izlik" asarini yozishda Folknerning "Shovqin va g'azab" romani unga juda katta ta'sir

qilganini bir necha bor aytgan. U Folknerning asarlarida boy va fojiali tarixga ega bo'lgan kichik bir hudud jamiyatining o'ziga xos hayotiy tajribasini ifodalashning yo'lini topgan. Aynan shu tajriba Lotin Amerikasining o'z tarixiy kechinmalari bilan juda o'xshash edi. Folkner janub haqida yozar ekan, aslida butun dunyodagi shunday murakkab tarixga ega bo'lgan hududlar uchun universal bir badiiy uslub yaratib berdi.

Gabriel Garsiya Markes 1981 yilda Parij Revue jurnaliga bergan intervyusida shunday degan: Uilyam Folknerning kitoblarini birinchi marta o'qiganida, uning hayoti butunlay o'zgargan. Aynan o'shanda u yozuvchi bo'lishni xohlagan. Folkner asarlari orqali Markes o'zining tug'ilib o'sgan joyi, Kolumbiyaning Karib dengizi sohili Folknerning Missisipi shtatidagi dunyosiga juda o'xshashligini anglab yetgan. U ikki dunyo o'rtasidagi bu yaqinlikni ko'rib, o'z hududi va xalqi haqida ham shunday kuchli va go'zal asarlar yozish mumkinligini tushunib olgan.

Janub uyg'onishi nafaqat Lotin Amerikasiga, balki Yaponiya, Afrika va Sharqiy Yevropa adabiyotlariga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir dunyoning o'sha hududlarida yozuvchilar janubiy yozuvchilarnikiga o'xshash sharoitda qolgan joylarda paydo bo'lgan. Bu sharoitning asosiy belgilari tarixiy travma bilan yashashga majbur bo'lish, eski an'analar bilan yangi zamon o'rtasidagi ziddiyat va chekka hududga xos bo'lgan o'ziga xos dunyoqarashdir. Aynan shunday muammolar bilan kurashayotgan yozuvchilar Folkner va boshqa janublik mualliflarning asarlarida o'zlariga yaqin va tushunarli bir til topganlar. Janub uyg'onishi ularga o'z hududlarining o'ziga xos muammolarini butun dunyo tushunadigan adabiyot tilida ifodalashning usulini o'rgatgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Janub uyg'onishi Amerika va jahon adabiyotida juda o'ziga xos hodisa bo'lgan. Yigirmanchi asrning boshlarida madaniy qoloqlik ramzi hisoblangan mintaqada bir necha o'n yilliklar ichida o'z davrining eng boy badiiy harakatlaridan birini vujudga keltirdi. Bu harakat jahon adabiyotida har qanday milliy adabiy gullash davri qoldirgan iz bilan teng darajada chuqur iz qoldirdi.

Janub uyg'onishining paradoksi shundan iboratki, u o'z kuchini aynan zaifligi bo'lib ko'ringan narsalardan olgan. Urushdagi mag'lubiyat ikki tomonlama, ya'ni o'zaro zid bo'lgan ikki nuqtai nazardan qarash manbai bo'ldi. Iqtisodiy va ijtimoiy qoloqlik yerga, tabiatga va an'anaga nisbatan tirik, jonli va chuqur munosabatning manbai bo'lib xizmat qildi. Irqiy aybdorlik esa o'tkir va og'riqli axloqiy tafakkur yoki nafaqat o'zini, balki butun bir tizimni tanqidiy qayta ko'rib chiqishning manbai bo'ldi. Kuchli diniy qarashlar dunyodagi transsendent, ya'ni moddiy olamdan tashqaridagi ma'naviy haqiqatni his qilishning manbai edi. Bu qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarning barchasi badiiy ijodni falaj qilish yoki to'xtatish o'rniga, uning asosiy yoqilg'isi, harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Shu bilan birga, zamonaviy adabiyotshunoslik "Janub Renessansi"ni yanada kengroq va inklyuzivroq kontekstda qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlamoqda. Bunda afroamerikalik

yoʻzuvchilarning hissasi, ayol ijodkorlarning oʻrni, hamda “Janub Renessansi”ning “Garlem renessansi” bilan oʻzaro munosabati alohida eʼtibor talab qiladigan yoʻnalishlardir. “Janub Renessansi” Amerika adabiyotining nafaqat mintaqaviy, balki universal ahamiyatga ega boʻlgan eng yorqin sahifalaridan biri boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Rubin, Louis D.; Jacobs, Robert D., eds. Southern Renaissance: The Literature of the Modern South. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1953., p.286.
2. Tate, Allen. Reactionary Essays on Poetry and Ideas. New York: Scribner's, 1936, p.92
3. Mencken, H. L. "The Sahara of the Bozart." Prejudices: Second Series. New York: Alfred A. Knopf, 1920, p.138
4. Hobson, Fred. Tell About the South: The Southern Rage to Explain. Baton Rouge: Louisiana State University Press, 1983, p. 124
5. Simpson, Lewis P. The Dispossessed Garden: Pastoral and History in Southern Literature. Athens: University of Georgia Press, 1975, p.109
6. Gray, Richard. Southern Aberrations: Writers of the American South and the Problems of Regionalism. Baton Rouge: Louisiana State University Press, 2000, p.362
7. Krieger, Murray. Northrop Frye in Modern Criticism. Columbia University Press, 1966, p.203
8. Faulkner, William. Absalom, Absalom! New York: Random House, 1936, p.8